# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№5



2026

ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 2026-yil, may.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Karimov Norboy G‘aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G‘afforovna,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko‘nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o‘g‘li,** O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig‘i
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining o‘rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig‘i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra’no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*



**Editorial board:**

**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHIYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O‘RNI ........ 18
**O‘rinov Akmaljon Ahmadjonovich**
**Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o‘g‘li**
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI ........ 22
**Ro‘zmatova Farahongiz Bekmurotovna**
ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOIY TENGLIKKA TA’SIRI ........ 27
**Babajanova Dilfuza Abdurasulovna**
HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA) ........ 32
**Xasanova Mavjuda Ma’mirjonovna**
TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI ........ 41
**Barotov Umidjon Mahmud o‘g‘li**
BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI ........ 48
**Shoyev Davronbek Axmadjonovich**
**Abdullayeva Gulsanam**
ENGLISH LOANWORDS IN RUSSIAN AND UZBEK: TERMINOLOGICAL ADAPTATION WITHIN A COMPARATIVE LINGUISTICS FRAMEWORK ........ 53
**Kambarova Liliya Ruslanovna**
РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ ........ 56
**Алибекова Саодат Лапасовна**
EKSPORTGA YO‘NALTIRILGAN SANOAT KORXONALARIDA MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI ........ 61
**Usmonova Dilfuza Ilxomovna**
O‘ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI ........ 66
**Junaydullayev Mels Asliddin o‘g‘li**
KORXONA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA ERP TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH ........ 72
**Xaydarova Kamola Axinjanovna**
**Berdiqulov Suhrob Berdiqul o‘g‘li**
KORPORATIV BIRLASHISHLAR VA QO‘SHIB OLISHLAR: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI ........ 78
**Latipova Shaxnoza Maxmudovna**
**Xolmurodova Sevara Asqarovna**
DAVLAT BUDJETI KAPITAL XARAJATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ........ 84
**Guzal Navruzova**
KORXONALARNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA’MINLASHDA INVESTITSIYA VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI ........ 88
**Mamayeva Diyora Kurbanbayevna**
MARKAZIY VA JANUBIY O‘ZBEKISTON MINTAQALARI SANOATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KO’RSATGICHLARI HOLATI ........ 94
**Uralov Eliboy Omonovich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNI QO‘LLASH ..... 100
Dilfuza Xamzayeva
Xurshid Xurramov

TO‘QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH ..... 106
Otaxonova Roza Boboxon qizi

APPLICATIONS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF BANKING SERVICES ..... 111
Mamutova Aygul Kalmurzaevna, Yaxyayeva Inobat Karimovna

INVESTITSIYANING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDAGI ASOSIY IMKONIYATLARI ..... 118
Rapikov Toxirjon Yuldashbayevich

XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI ..... 122
Yahyoxonov Niyozxo‘ja Bahroil o‘g‘li

ALOQA KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI VA PROGNOZLARI ..... 128
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o‘g‘li

YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT IQTISODIY BOSHQARUVINING ROLI VA AHAMIYATI ..... 133
Xatamova Gavhar Kiyamovna

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH ..... 138
Seitnazarov Baxadir Muratbaevich

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING TASHQI SAVDO FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI ..... 144
Ismailov Erkin Faxretdinovich

THE ROLE OF INNOVATIVE MARKETING STRATEGIES IN THE GLOBAL BUSINESS ENVIRONMENT ..... 148
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Nigora Fayzulla kizi Sayfullaeva, Maftuna Rustambek kizi Khojiakbarova

AGROKLASTER – AGRAR SOHANING RIVOJLANISH NUQTASI ..... 154
Boltayev Nazarbek Narzullayevich

RAQAMLI BANKLAR RESURS BAZASINI OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI ..... 159
Jumayev Muzaffar Mahmud o‘g‘li

O‘ZBEKISTON DON SANOATIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA UNING STRATEGIYASINI RIVOJLANTIRISH ..... 164
Kurbanova Nigora Abduraxmanovna

RESPUBLIKAMIZDA AGROLOGISTIKA XIZMATLARI VA UNING SAMARADORLIGI ..... 169
Azizova Dilafruz Habibullayevna

INVESTITSIYA LOYIHALARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISH VA BAHOLASHDAGI MUAMMOLAR ..... 172
Ulashev Jahongir Xushmuradovich, Baxriddinova Yulduz Baxriddin qizi

O‘ZBEKISTON ENERGETIKA TARMOG‘INING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI ..... 176
Yusupov Ulug‘bek Shukrullayevich, Kodirova Xilola Joxongir qizi

IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BUDJETGA SOLIQ TO‘LOVLARINI HISOBGA OLISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 183
Azimova Feruza Payziyevna, Madaminjonov A.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MEHMONXONA XIZMATLARIDA VAQTNI BOSHQARISHNING XIZMAT SAMARADORLIGIGA TA’SIRI ..... 188
Tolipova Malika Saloxidinovna

AGROKLASTERLARNI TASHKIL ETISH — QISHLOQ XO'JALIGI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA) ........ 192
Yeshimbetov Uktamjon Xudaybergenovich

O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ........ 198
M.I. Murodova

"YASHIL" INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISH MEXANIZMLARI ........ 203
Muxtorov Ilhom Avazjon o'g'li

O'ZBEKISTONDA SANOATNING YASHIL TRANSFORMATSIYASI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA OMILLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI ........ 211
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich

IJTIMOIY HIMOYA TIZIMIDA MOLIYAVIY RESURSLARNI SAMARALI TAQSIMLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 216
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich

DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RESURSLARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY AHAMIYATI ........ 221
Aipova Iroda Ikramovna

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MARKETING BOSHQARUVINING HOLATINING TAHLILI ........ 226
Musayeva Shoira Azimovna

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI: XALQARO TAJRIBA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ........ 232
Egamova Komila Bekchon qizi, Nasirova Kamola Alimovna

РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ТРАНСФОРМАЦИИ К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ПРОСТРАНСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ АНДИЖАНСКОГО РЕГИОНА ........ 239
Кадырова Лола Алимджановна, Эгамов Бахтиёржон Нурметович

REAL SEKTOR KORXONALARINI MOLIYALASHTIRISHDA ISLOM MOLIYASINING O'RNINI OSHIRISH ........ 246
Sevara Hakimova Rustam qizi

TIJORAT BANKLARI DAROMADLARI TARKIBI VA DINAMIKASINING STATISTIK TAHLILI ........ 251
Abdukaxarova Shoira Abduvaxobovna

YASHIL INNOVATSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH VA AMALGA OSHIRISH IQLIM O'ZGARISHLARIGA MOSLASHISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA: TIZIMLI TAHLIL VA KELGUSI TADQIQOT YO'NALISHLARI ........ 255
Turanov Suhrob Bahodir o'g'li

OLIY TA'LIM MUASSASALARI MEDIA IMIJINI KAPITALLASHTIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI YONDASHUVLAR ........ 262
Nazarov G'ulom Akmal o'g'li

"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI JORIY QILISH TA'LIMINI TASHKIL ETISH: ADABIYOTLAR SHARHI VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA NAMUNAVIY O'QUV DASTURLARINI ISHLAB CHIQISH USLUBIYOTI ........ 269
Raxshona Nabibullayeva

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA LIZING HISOBINI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 275
Baxadirov Alisher Komilovich

TIJORAT BANKLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI ........ 281
Nomozov Umid Iskandarovich

GLOBAL BRANDING VS. LOCAL BRANDING: STRATEGIC TRADE-OFFS IN INTERNATIONAL MARKETING ........ 285
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Mamasolieva Kamila, Akhmedova Zaynabkhon Khayrullo qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQARISHIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA SUG‘URTA TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI ........ 293
**Sayfutdinova Soxiba Abdugafurovna**

XORIJIY MAMLAKATLARDA BIZNES INKUBATORLAR FAOLIYATINING INSTITUTSIONAL MODELI, RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ILG‘OR TAJRIBALARI ........ 297
**Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich, Odilov Akmal Baxrom o‘g‘li, Atayeva Hulkaroy Murod qizi**

XALQARO TAJRIBALARDA KICHIK KASSA AMALIYOTINI JORIY QILISH MASALALARI ........ 302
**Eshonqulov Akmal Qudratovich**

O‘ZBEKISTON KICHIK VA O‘RTA KORXONALARI O‘RTASIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO‘LLASHDAGI TO‘SIQLAR ........ 306
**Raxmatova Sitora Shuhratjon qizi**

IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA DON MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINING BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISH ........ 316
**Xamidova S.Ya.**

KORXONALAR AUDITIDA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI ........ 322
**Ro‘zieva Gulchexra O‘sarovna**

NATIJAGA YO‘NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA O‘TISHDA DASTURIY BUDJETLASHTIRISH TIZIMINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI ........ 328
**Ubaydullayeva Oydinoy Xabibullayevna**

O‘ZBEKISTONDA FISKAL BARQARORLIKNI TA’MINLASH YO‘LLARI ........ 333
**Isomiddinova Xilola Xasan qizi**

ЛЁГКАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ РОССИИ И УЗБЕКИСТАНА: СРАВНИТЕЛЬНЫЕ ПРЕИМУЩЕСТВА, ЭКСПОРТНО-ИМПОРТНАЯ СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ КООПЕРАЦИИ ........ 338
**Муниса Турдибаева**

O‘ZBEKISTONDA SUT ISHLAB CHIQARISH DINAMIKASI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI ........ 350
**Xamdamova Guljaxon Ablakulovna**

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA QIMMATLI QOG‘OZLAR BILAN OPERATSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH ........ 357
**Malikova Ug‘iloy Abdurasul qizi**

O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY O‘SISH VA $CO_2$ EMISSIYASI: EKOLOGIK KUZNETS EGRI CHIZIG‘I (EKC) ASOSIDA TAHLIL ........ 363
**Choriyev Maxmayoqub**

YIRIK KIMYO SANOATI KORXONALARIDA RISK-MENEJMENT JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI: ZAMONAVIY TAJRIBA VA “NAVOIYAZOT” AJ AMALIYOTI ........ 368
**Sayidova Shahlo Toshtemirovna**

BOJXONA HUDUDIDA QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-BOSHQARUV MEXANIZMINI STRATEGIK TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI ........ 373
**Lutpullayev Shukrullo Qudratullayevich**

PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH MODELI ........ 381
**Mamasoliyev G‘ayratbek Maxamadyusupovich**

ICHKI NAZORAT TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN METODIKASI ........ 386
**Qo‘ldosheva Xolisa**

O‘ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORAT MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ........ 393
**Hakimov Nodir Nazarovich**

# O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORAT MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

**Hakimov Nodir Nazarovich**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti i.f.f.d., PhD.
ORCID: 0009-0001-2283-5506
Email: nodir0967@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliyaviy nazorat masalalari ilmiy tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqilgan. Unda moliyaviy nazoratning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari nazariy jihatdan yoritilib, mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlil etilgan. Shu bilan birga, moliyaviy nazoratni amalga oshirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganilib, ular asosida muhim xulosalar umumlashtirilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy nazorat, investitsiya faoliyati, davlat nazorati, investitsiyalar.

Abstract. This article examines the issues of financial control as an object of scientific research. It theoretically explains the socio-economic foundations of financial control and analyzes scientific studies conducted in this field. At the same time, the experience of foreign countries in implementing financial control is studied, and important conclusions are generalized based on this experience.

Key words: financial control, investment activity, state control, investments.

Аннотация. В данной статье вопросы финансового контроля рассматриваются как объект научного исследования. В ней с теоретической точки зрения освещены социально-экономические основы финансового контроля, а также проанализированы научные исследования, проведённые в данном направлении. Наряду с этим изучен опыт зарубежных стран в осуществлении финансового контроля, на основе которого обобщены важные выводы.

Ключевые слова: финансовый контроль, инвестиционная деятельность, государственный контроль, инвестиции.

## KIRISH

O'zbekistonda davlat moliyaviy nazorat tadbirlarini samarali amalga oshirishni ta'minlash borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. «Budjet tashkilotlarida ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritilgan obyektlarda amalga oshirilayotgan qurilish ishlarini monitoring qilish va ularda nazorat tadbirlarini o'tkazish, budjet tizimi budjetlaridan to'lanayotgan subsidiyalarning manzilliligini va samaradorligini baholash, davlat xaridlarida qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini nazorat qilish, davlat qarzi va grantlar hisobiga amalga oshirilayotgan loyihalarning natijadorligini o'rganish» Hisob palatasi, Moliya vazirligi, vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlarining birinchi navbatdagi muhim vazifalari sifatida belgilab berildi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jumladan, bu borada chuqur ilmiy tadqiqot olib borgan S. Platonova moliyaviy nazorat kategoriyasiga quyidagicha ta'rif beradi, ya'ni, "moliyaviy nazorat tushunchasi davlat va mahalliy hokimiyatning davlat moliyasiga tegishli moliyaviy resurslarining barcha darajadagi harakatlarini samarali boshqarish borasidagi uzluksiz, profilaktik, joriy hamda keyingi moliyaviy nazoratni amalga oshirish borasidagi vakolatli faoliyatdir". O'z navbatida, S. Platonova davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishda "zararning oldini olish" tamoyiliga asoslanishning samaradorligini isbotlagan. Muallifning fikricha, davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish va uni amalga oshirishda profilaktik yondashuvga keng e'tibor berish kerak, shundagina moliyaviy nazoratga qilingan xarajatlar o'z samarasini beradi.

T. Pereverzeva bu boradagi ilmiy tadqiqotlarida "davlat moliyaviy nazorati budjet xarajatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish va demokratik, ijtimoiy yo'naltirilgan davlat qurish hamda butun aholi farovonligini oshirish

IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

uchun zamin yaratishning samarali vositasi, davlat (shahar) resurslarining ijtimoiy sohani moliyalashtirishga sarflanishi bo'yicha amaldagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishini baholashga qaratilgan ichki va tashqi davlat nazorati subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan ko'p funksiyali faoliyat" deb baho beradi.

Rossiyalik iqtisodchi A. Migachev davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish va uni amalga oshirishning Rossiya va Fransiya davlatlari o'rtasidagi o'zaro xususiyatli jihatlarini tadqiq qilgan. A. Migachev o'z tadqiqotlarida davlat moliyaviy nazoratining umumiy xususiyatlarini ko'rsatib, uni moliyaviy nazorat obyekti sifatida davlatning moliyaviy sohasi, subyekti sifatida moliyaviy nazorat o'tkazuvchi vakolatli organlar, moliyaviy nazoratning amalga oshirilish sohasi sifatida esa moliyaviy resurslarning holati va harakati, o'tkazishning shakl va usullarini moliyaviy nazoratning belgilari deb ko'rsatadi. A. Migachev davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish tamoyillari haqida to'xtalib, uning mustaqillik, davlat moliyaviy nazoratini o'tkazuvchi organlarning kompetentligi, qonuniylik, amalga oshirishning ochiqligi, samaralilik, tizimlilik va suzuvchanlik (egiluvchanlik) kabi tamoyillarini ko'rsatib o'tadi.

Mahalliy olimlardan B. Turobov o'zining "Budjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlarda budjet nazoratini mustahkamlash masalalari" nomli nomzodlik dissertatsiya ishida budjetdan mablag' oluvchi tashkilotlar tomonidan budjet intizomiga rioya qilinish holatini ilmiy tadqiq qilgan bo'lsa, A. Jabborov o'z ilmiy ishlarida O'zbekiston Respublikasining davlat moliyaviy nazorati tizimi muammolari va rivojlantirish yo'nalishlariga urg'u bergan, Z. Hamidova esa budjet tashkilotlarida ichki audit xizmatining tashkiliy-uslubiy jihatlarini tadqiq qilgan.

Davlat moliyaviy nazoratiga oid ilmiy-nazariy qarashlarni tahlil qiladigan bo'lsak, unga huquqiy, sotsial va moliyaviy jihatdan yondashuvlarni ko'rish mumkin.

Davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish va uni samarali amalga oshirish metodologiyasini ishlab chiqish hamda takomillashtirishning ayrim muammolari bo'yicha xorijiy yetakchi iqtisodchi olimlar tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar rasmiy statistik manbalar, jumladan, davlat hisobotlari ma'lumotlari hamda xalqaro tashkilotlar bazalaridan yig'ildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy, trend va dinamik tahlil usullari orqali o'rganildi. Shuningdek, davlat moliyaviy nazoratining samaradorligi statistik ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinib, umumlashtirish va iqtisodiy talqin usullari qo'llanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda davlat moliyaviy nazorat tizimini tashkil etish va uni amalga oshirish amaliyoti tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bu mexanizmni shaffoflashtirish va takomillashtirish bo'yicha keng islohotlar o'tkazilib, uning dastlabki natijalari ko'rinmoqda. Shu bilan birgalikda, davlat moliyaviy nazorati amaliyotini amalga oshirishda ayrim muammolar mavjudligi ko'rinmoqda, ayrimlarini esa yanada takomillashtirish zarurati tug'ilmoqda.

Davlat moliyasini tashkil qilishning muhim sabablaridan biri bu davlat budjetidan mablag' oluvchilar orqali davlat tomonidan jamiyatga ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarning bir maromda moliyalashtirilishiga erishishning ma'muriy usullaridan samarali foydalanish bo'lsa, boshqa tomondan, yalpi ichki mahsulotning bir qismi sifatida budjetga yo'naltirilgan moliyaviy resurslarning jamiyat manfaatiga xizmat qilishini ta'minlashning muhim omili sifatida qarash mumkin. Davlat budjetidan mablag' oluvchilar tomonidan o'zlarining xarajatlar smetasi doirasida oladigan moliyaviy mablag'larning maqsadli va manzilli sarflanishi, mablag'larning noqonuniy sarflanmasligi, davlat xaridlari doirasida tovar (xizmat, ish)larni sotib olish, ularning narxlarining asossiz oshirilmaganligi, shuningdek, kapital qurilish ishlari jarayonida korrupsion holatlarga yo'l qo'yilmasligi, mavjud moddiy-texnika vositalarining bus-butligini ta'minlash va ulardan samarali foydalanish holatlari bilan iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish moliyaviy nazoratni to'g'ri tashkil qilish va uni amalga oshirishni taqozo etadi.

Albatta, bu jarayonni ta'minlash moliyaviy huquqbuzarliklar profilaktikasini, budjet tizimi budjetlari mablag'larining maqsadli sarflanishini, moliyaviy nazorat obyektlari tomonidan budjet qonunchiligiga, shuningdek, budjet va smeta-shtat intizomiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish bilan moliyaviy tashkiliy-iqtisodiy jarayonlarga ehtiyoj tug'diradi. Moliyaviy nazorat nafaqat budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy munosabatlarni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi tomonidan yoki uning kafolati ostida jalb qilingan kreditlardan, insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi boshqa jamg'armalar mablag'laridan foydalanishda qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishni ham qamrab oladi. Shu jihatdan olganda, davlat budjetidan mablag' oluvchilar tomonidan olingan moliyaviy mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash moliyaviy boshqaruv tizimidagi dolzarb masalalardan sanaladi.

O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning Harakatlar strategiyasiga muvofiq, moliya tizimining muhim bo'g'ini sifatida davlat moliyaviy nazoratini yanada takomillashtirish bilan bog'liq amaliy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Avvalo, davlat moliyaviy nazorat tizimining huquqiy asoslari takomillashtirildi, uni amalga oshiruvchi organlarning faoliyati qaytadan ko'rib chiqildi. Bundan ko'zlangan maqsad bu boradagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va uning samaradorligiga erishishdan iborat qilib belgilandi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-oktyabrdagi 870-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi to'g'risida NIZOM" tasdiqlandi va asosiy moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasining funksiya va vazifalari qaytadan belgilandi. Bunda davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishda zamonaviy usullarni kengroq qo'llash lozimligi belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to'g'risida"gi O'RQ-546-son yangi tahrirdagi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunga ko'ra, Hisob palatasining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar: "O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti to'g'risidagi qonun loyihasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari loyihalarining ekspertizasini hamda o'rta muddatli davr uchun fiskal strategiya tahlilini o'tkazish; qabul qilinayotgan davlat dasturlarining va hududiy dasturlarning moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlanganligi auditini amalga oshirish; davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablarining to'g'ri qo'llanilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish; budjet jarayonining ochiqligini ta'minlash tartibiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish; O'zbekiston Respublikasining pul-kredit va valyuta siyosatini, O'zbekiston Respublikasining aktivlari hamda majburiyatlari holatini, oltin-valyuta zaxiralarining boshqarilishini, shuningdek, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan amalga oshirilayotgan operatsiyalarni tashqi auditdan o'tkazish, davlat boshqaruv organlarida, shuningdek, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan muassasa va tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tizimini joriy qilishga, shuningdek, uning samarali faoliyat ko'rsatishiga doir choralarning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish" kabi vazifalar ham belgilab berildi (1-rasm).




1-rasm. Davlat moliyaviy nazoratida xavf-tahlilini baholash modeli[1]

1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

O‘tkazilgan tahlillarning yana bir xulosasi shundan iboratki, budjet mablag‘lari va boshqa maqsadli pul jamg‘armalaridan mablag‘ oluvchilar tomonidan olingan pul mablag‘larining maqsadli sarflanishi va ular yuzasidan samaradorlik darajasini yanada oshirishda moliyaviy nazoratda xavf tahlilini baholash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu boisdan, biz tadqiqotimiz doirasida O‘zbekiston davlat moliyaviy nazorat tizimida “Davlat moliyaviy nazoratida xavf tahlilini baholash modeli”ni ishlab chiqdik. Mazkur model mazmunan va tarkibiy jihatdan bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan uch bosqichni qamrab oladigan moliyaviy xavflarni baholash tizimidan iborat.

Birinchi bosqichda nazoratning maqsadi va nazorat dasturidagi xatolik hamda noaniqliklarni baholash, nazorat davriyligini to‘g‘ri aniqlamaslik xavfi, moliyaviy nazoratning umumiy tamoyillarining noto‘g‘ri belgilanishi, moliyaviy nazoratga jalb qilingan mutaxassislarning kasbiy saviyasi yetarli emasligi kabi xavflarni to‘g‘ri baholash amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘lsa, ikkinchi bosqichda esa moliyaviy nazorat metodlarining to‘g‘ri qo‘llanilmaslik xavfi, moliyaviy qonunbuzilishlarga sabab bo‘luvchi omillarni to‘g‘ri baholamaslik xavfi, moliyaviy nazorat jarayonida asoslanadigan moliyaviy hujjatlarning qalbakiligi xavfini baholash, moliyaviy nazorat obyektidagi texnik, iqtisodiy va moliyaviy ko‘rsatkichlarning haqiqiy jarayonga mos kelmaslik xavfini baholashdan iborat bo‘lishi lozim deb hisoblaymiz.

Albatta, moliyaviy nazorat xavf tahlilining uchinchi bosqichida keltirilayotgan jarayonlar, ya’ni moliyaviy auditorning ish rejasining nazorat obyektini maqsadli moliyaviy audit qilishga bog‘lanmaslik xavfini baholash, moliyaviy nazorat xulosalarining amaldagi qonunchilik doirasida qilinganligini baholash, moliyaviy nazorat natijalarining ichki va tashqi audit xulosalariga mos kelishini baholash hamda moliyaviy nazorat natijalarining dastlabki, oraliq nazorat jarayonidagi holat bilan bog‘liqligini baholash doirasida nazoratni amalga oshirish turli xil xatoliklarning oldini olishga, moliyaviy nazoratning dastlabki bosqichidan tortib uni samarali o‘tkazishgacha bo‘lgan jarayonning xolisligi va natijadorligini ta’minlashga erishiladi.

Qonunchilikka ko‘ra, budjet tizimi budjetlari mablag‘lari va davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish hisobidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining to‘liq hamda samarali bajarilishi ustidan nazorat qilinadiki, bu boradagi Hisob palatasi tomonidan o‘tkazilgan moliyaviy nazorat tahliliga muvofiq, respublika bo‘yicha 2019–2020-yillar investitsiya dasturlariga kiritilgan qurilish, kommunal xo‘jaligi va yo‘l sohasidagi obyektlar o‘rganilgan. O‘rganishlar natijasida ijtimoiy obyektlar va yo‘llarni o‘z vaqtida foydalanishga topshirish bo‘yicha tizimli ishlarni yanada kuchaytirish zarurligi qayd etilgan.

Umumiy qiymati 50,9 trln. so‘m bo‘lgan 17 446 ta obyektda qurilish ishlari olib borilgan bo‘lib, o‘rganishlarda qiymati (barcha manbalar hisobidan) 5 trln. so‘mdan oshiq bo‘lgan 783 ta obyekt bo‘yicha belgilangan muddatlarda foydalanishga topshirish jarayonlarini jadallashtirish zarurligi aniqlangan. Bu kabi holatlarni tahlil qilganda ijtimoiy obyektlar bilan bog‘liq dasturlarga ajratilgan mablag‘lardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish, ichki manbalar hisobidan jalb qilingan qarz mablag‘lari, xorijiy kreditlar va ular bo‘yicha hisoblangan foiz to‘lovlarini maqbullashtirish, shuningdek, obyektlar qurish uchun kreditlar ajratish tizimini takomillashtirish orqali ijtimoiy obyektlarning o‘z vaqtida ishga tushirilishini ta’minlash imkoniyati mavjudligi ko‘rinmoqda. Shu boisdan, bizning fikrimizcha, bu kabi moliyaviy qonunbuzilishlarga yo‘l qo‘yilmasligi, budjet mablag‘laridan samarali foydalanish, moliyaviy nazorat tadbirlarining samarali usullari sifatida quyidagi mexanizmni taklif etamiz.

Ya’ni, respublikamizda ijtimoiy obyektlar hamda ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirish bo‘yicha loyihalarga ajratiladigan mablag‘larni ichki manbalar hisobidan jalb qilingan qarz mablag‘larini, xorijiy kreditlarni va ular yuzasidan hisoblangan foiz to‘lovlarini qoplashga, obyektlar qurish uchun kreditlar ajratishga yo‘naltirish tizimidan voz kechish kerak. O‘z navbatida, ilgari tasdiqlangan va qabul qilingan tegishli loyiha (qaror) lar bo‘yicha kreditlarning asosiy qarzi va foiz to‘lovlari respublika budjetida davlat qarziga xizmat ko‘rsatish parametrlari kesimida mablag‘lar hisobidan qoplanishi maqsadga muvofiq. Bunda ijtimoiy obyektlar bo‘yicha hududlardagi loyiha hujjatlarida belgilangan kapital qo‘yilmalar limitlari yetishmay qolsa, obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlash yuzasidan, agar asosli qo‘shimcha talab qilinadigan xarajatlar doirasidagi mablag‘lar hududlarning vakillik kengashlari qarorlari bilan mahalliy budjetlarning qo‘shimcha topilgan moliyaviy mablag‘lari hisobidan qoplanishi lozim deb hisoblaymiz.

Respublikamizdagi davlat moliyaviy nazorat mexanizmlarini yanada takomillashtirish doirasida moliyaviy nazorat jarayonlari va ularga oid ma’lumotlar hamda moliyaviy nazorat obyektlari bilan bog‘liq moliyaviy qonunchilikka rioya qilinishi nazoratining masofaviy shakllari va tezkor ma’lumotlarni olishga imkon beruvchi tizimlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Moliyaviy nazorat obyektlari hisoblangan budjet va budjetdan tashqari fondlardan mablag‘ oluvchilarning moliyaviy nazorat tadbirlari haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishi, bundan tashqari, moliyaviy nazorat organlarining o‘z faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilishni ta’minlashning axborotlashtirilgan tizimini takomillashtirishga ehtiyoj mavjud. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish doirasida moliyaviy nazorat jarayonini raqamlashtirish tamoyili asosida yangi mexanizmlarni joriy etish lozim deb hisoblaymiz. Shu maqsadda respublikamizda davlat moliyaviy nazorat tizimida “Davlat auditi” milliy dasturini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Oʻzbekiston moliya tizimida davlat moliyaviy nazoratini tashkiliy jihatdan hamda uni amalga oshirish jarayonining samaradorligini taʼminlash maqsadida yuqoridagi ilmiy-nazariy tahlillarimiz natijalaridan kelib chiqib, davlat moliyaviy nazoratini yanada takomillashtirish yoʻnalishlaridagi takliflarimizning mazmunini keltirib oʻtamiz:

1) Barcha budjet tashkilotlari uchun yillik xarajatlar smetalarini elektron tarifikatsiya va shtatlar jadvali asosida shakllantirish, shuningdek, ularni ish haqi toʻlash moduliga bogʻlash zarur.

2) Davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishga vakolatli boʻlgan nazorat organlari moliyaviy nazorat ishlarini toʻgʻri rejalashtirish va shu orqali nazorat samarasini taʼminlash maqsadida navbatdagi yil uchun nazorat obyektlari va shakllari kesimida hamda kelgusi ikki yilga nazorat tadbirlarining moʻljallari asosida tuzishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

3) Davlat moliyaviy nazorat tizimining muhim boʻgʻini boʻlgan tashqi audit jarayonida masofaviy nazorat va risk tahlilini amalga oshirish, moliyaviy nazoratda tashqi manba maʼlumotlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Chunki bu mexanizmlardan samarali foydalanish davlat moliyaviy nazoratining samaradorligini oshiradi.

4) Bugungi kunda rasmiy maʼlumotlarga koʻra, respublikamizda qurilish tarmogʻida shaffoflik va moliyaviy nazorat mexanizmlarini yanada takomillashtirish boʻyicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa qurilish sohasida davlat moliyaviy nazorat tadbirlarining samaradorligini taʼminlash, tezkor moliyaviy nazoratni tashkil etish maqsadida “Shaffof qurilish” axborot tizimini joriy qilishni taqozo etadi. Unda obyektlarning manzilli roʻyxatini elektron tarzda shakllantirish va tasdiqlash modulini yaratish, obyektda bajarilgan ishlar, shuningdek, materiallar sarfi toʻgʻrisidagi smeta va uning ijrosi hisobini yuritish, bajarilgan ishlar hajmi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni texnik auditorlar tomonidan kiritib borilishini yoʻlga qoʻyish hamda ushbu axborot tizimini Moliya vazirligining axborot tizimi bilan integratsiya qilish asnosida obyektlar qurilishini “Shaffof qurilish” axborot tizimidan olingan maʼlumotlar asosida moliyalashtirish tizimini yoʻlga qoʻyish maqsadga muvofiqdir.

5) Budjet tashkilotlari xodimlariga har oyda ularning ish haqi toʻgʻrisida SMS xabarnoma yuborish tizimini joriy etish lozim. SMS xabarnoma joʻnatish xarajatlarini Oʻzbekiston Respublikasining respublika budjeti hisobidan moliyalashtirishni amalga oshirish zarur.

6) Budjet intizomi buzilishi holatlarini toʻgʻri talqin qilish va moliyaviy nazorat doirasida yakuniy xulosalarning obyektivligini taʼminlashga xizmat qiluvchi huquqbuzarlik turlarining tasnifini ishlab chiqish lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Dunyo davlatlarining davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish va uni amalga oshirish boʻyicha tajribalari shunday xulosalar beradiki, aksariyat davlatlarda davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish boʻyicha aniq vakolatli organlar belgilangan boʻlsa, ularning koʻpchiligida bu kabi vakolatli organlar mustaqil boʻlib, ularning natijalari mamlakat parlamentiga taqdim etiladi. Moliyaviy nazorat obyektlari sifatida budjetdan olingan mablagʻlar, moliyaviy hujjatlar, aholining murojaatlari, parlament tomonidan berilgan koʻrsatmalar koʻproq uchraydi.

Davlat gʻaznasini shakllantirish va uning mablagʻlaridan davlatning maqsadli sarflanishi bilan bogʻliq iqtisodiy munosabatlar yuzaga kelishi bilan bir vaqtda bu mablagʻlardan maqsadli foydalanish boʻyicha davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi vakolatli davlat organlari va ularning asosiy hamda qoʻshimcha faoliyati sifatida moliyaviy nazoratning institutsional tizimi ham shakllandi. Bu tizim dunyo davlatlarining siyosiy ustqurmasiga monand ravishda takomillashib kelinmoqda.

Respublikamizdagi davlat moliyaviy nazorat mexanizmlaridagi yana bir katta muammolardan biri bu moliyaviy nazorat jarayonlari va ularga oid maʼlumotlar hamda moliyaviy nazorat obyektlari bilan bogʻliq moliyaviy qonunchilikka rioya qilinishi nazoratining masofaviy shakllari va tezkor maʼlumotlarni olishga imkon beruvchi tizimning yetarli emasligidir. Moliyaviy nazorat obyektlari hisoblangan budjet va budjetdan tashqari fondlardan mablagʻ oluvchilarning moliyaviy nazorat tadbirlari haqidagi maʼlumotlarga ega boʻlishi, bundan tashqari, moliyaviy nazorat organlarining oʻz faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilishni taʼminlovchi axborotlashtirilgan tizimga ehtiyoj mavjud. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish doirasida moliyaviy nazorat jarayonini raqamlashtirish tamoyili asosida yangi mexanizmlarni joriy etish lozim deb hisoblaymiz. Shu maqsadda respublikamizda davlat moliyaviy nazorat tizimida “Davlat auditi” milliy dasturini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 1-iyuldagi “Oʻzbekiston Respublikasining Hisob palatasi toʻgʻrisida”gi OʻRQ-546-son // URL: https://lex.uz/docs/4394324
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish toʻgʻrisida”gi PQ-128-son qarori // URL: https://lex.uz/uz/docs/-5858712

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6300-son Farmoni // URL: https://lex.uz/docs/-5607471
4. Переверзева Татьяна Викторовна. Государственный финансовый контроль расходов бюджета на финансирование социальной сферы. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Донецк-2018. С.9.
5. Платонова Светлана Евгеньевна. Механизм совершенствования государственного финансового контроля. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва-2013. С. 8.
6. Матвеева Н. С. Международный опыт осуществления государственного финансового контроля // Финансовый журнал. 2020. Т. 12. № 2. С. 69–95.
7. Туктаров Р.Р., Андреева Е.С. Финансовый потенциал как критерий оценки инвестиционной привлекательности предприятия. Электронный научный журнал «Вектор экономики» - №12. - 2018// www.vectoreconomy.ru | СМИ ЭЛ № ФС 77-66790, ISSN 2500-3666.
8. OECD. How regions grow: trends and analysis, OECD publishing, 2019, -p34
9. http://mf.uz O‘zbekiston Respublikasining Moliya Vazirligi veb - sayti
10. https://ach.gov.uz/uz/lists/view/207

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2026. № 5**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz